

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN UMUMIY
GIGIYENA VA EKOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN UMUMIY GIGIYENA VA EKOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Umumiy gigiyena va ekologiya fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Umumiy gigiyena va ekologiya

1. Umumiy gigiyena va ekologiya fanining predmeti va vazifalari;
2. Havo muhitining gigiyenik ahamiyati. Mikroiklim ko‘rsatkichlari gigiyenik ahamiyati, hona havosini antropogen ifloslanganligini gigiyenik ahamiyati. Quyosh radiatsiyasining gigiyenik ahamiyati;
3. Tuproq gigiyenasi. Tuproqning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati;
4. Suv gigiyenasi va aholini suv bilan ta’minlash;
5. Turar joyning gigiyenik ahamiyati;
6. Ovqatlanish gigiyenasi. Ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil etish. Oqilona ovqatlanishga bo‘lgan gigiyenik talablar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Umumiy gigiyena va ekologiya fanining predmeti va vazifalari	Umumiy gigiyena va ekologiya fanining predmeti va vazifalarini, tibbiy ta'lim tizimida "Umumiy gigiyena va ekologiya" fanining tutgan o'rni. "Aholi salomatligi" tushunchasi, salomatlik ko'rsatkichlarining yashash sharoitlariga bog'liqligini, atrof muhit va ekologik omillar haqida bilim va tushunchalarni bilishi kerak.	4 ta
2	Havo muhitining gigiyenik ahamiyati. Quyosh radiatsiyasining gigiyenik ahamiyati	Atmosfera havosining fizikaviy xossalariga gigiyenik ta'rifi, harorat, namlik, havoning harakat tezligi, barometrik bosim va havoning elektrlanganlik holatini tekshirishni, quyosh radiatsiyasining gigiyenik ahamiyatini, infraqizil ko'rinadigan va ultrabinafsha nurlarining biologik ahamiyati, tabiiy va sun'iy yoritilganlik. Tabiiy yoritilganlik ko'rsatkichlari gigiyenik ahamiyati, ta'sir etuvchi omillar, quyosh radiatsiyasi optik qismlari gigiyenik ahamiyati haqida bilim va tushunchalarni bilishi kerak.	7 ta
3	Tuproq gigiyenasi. Tuproqning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati.	Atrof muhitning omili sifatida tuproq muhitiga umumiy gigiyenik ta'rifini, tuproqning sanitar va epidemiologik ahamiyati haqida tushunchalarni, O'zR hududining biogeokimyoviy foni va asosiy endemik kasalliklar, ularni oldini olish tadbirlarini, tuproqning ifloslanishi va uni tozalash tuproqning fizik mexanik xossalari, kimyoviy tarkibini o'rganishning gigiyenik ahamiyati haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	5 ta
4	Suv gigiyenasi va aholini suv bilan ta'minlash	Suvning fiziologik va gigiyenik roli, uning epidemiologik ahamiyatini, O'zR hududidagi suv manbalariga gigiyenik ta'rif va ekologik muammolarni, ichimlik suvining sifatiga bo'lgan gigiyenik talablarni, ichimlik suvining sifatini yaxshilashdagi asosiy va yordamchi usullarni qo'llash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim, MSt-133-2024 (milliy standart) bo'yicha ichimlik suviga bo'lgan gigiyenik talablar.	9 ta
5	Turar joyning gigiyenik ahamiyati	Turar joylar mikroiklimiga qo'yiladigan gigiyenik talablar haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Aholi yashash joylarini tozalashning gigiyenik	4 ta

		masalalari, chiqindilar va ularni zararsizlantirish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi.	
6	Ovqatlanish gigiyenasi. Ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish. Ovqatdan zaharlanish	Aholi salomatligi uchun ovqatlanishning ahamiyatini, ovqatdan zaharlanishlar tushunchasi, tasnifini zamonaviy ekologik sharoitlarda ovqatlanishni ratsionallashtirish imkoniyati haqida bilimlariga ega bo'lishi kerak. Vitaminlar, ularni gigiyenik ahamiyati. Tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini sifatligini aniqlash. Ovqatdan zaharlanish, tasnifi. Mikrobgga aloqador bo'lgan va mikrobgga aloqador bo'lmagan mikrobdan zaharlanishlar. Ovqatdan zaharlanishni oldini olish choralari.	11 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena, tibbiy ekologiya. 1-qism o'quv qo'llanma 2023 yil

2. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena. Tibbiy ekologiya. 2-qism o'quv qo'llanma 2024 y.

3. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena. Tibbiy ekologiya o'quv darslik 2024 y.

4. S.S.Solixo'jaev - «Gigiyenadan amaliy mashg'ulotlar» o'quv qo'llanma «Ibn Sino» nashriyoti 1996 y.

5. B.Duschanov - «Umumiy gigiyena» - «Ibn Sino» nashriyoti 2001 y.

6. I.Xolliyev, A.Ikromov «Ekologiya» Toshkent «Mehnat» nashriyoti 2001-yil.

7. X.S.Yuldoshev - «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari» - «Mehnat» 2003

8. I.Xolliyev - «Ekologiya» - «Talqin» 2004 y.

9. Glinenko V.M. va boshqalar. – Гигиена и экология человека 2010 Москва.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.